XALQ DEPUTATLARI ISHTIXON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

Ishtixon ko‘chasi, 4-uy, +998 55 707 2567, https://kengash.gov.uz/ishtixon

2025-yil 12-dekabr VII-16-168-7-95-K/25 Ishtixon tumani

Ishtixon tumanining 2025 yil IV chorak mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarini balansliligini buzmagan holda ko‘paytirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 127-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-son qarori, Ishtixon tumani Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 13-noyabrdagi 01-38-819-son xulosasi, Ishtixon tumani hokimining birinchi o‘rinbosari Q.Nuriddinovning 2025-yil 13-noyabrdagi 161-son bildirgisi, Ishtixon tumani Adliya bo‘limining 2025-yil 12-dekabrdagi 5/16-25-sonli xulosasiga muvofiq, Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, 16-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-son qaroriga asosan, tumandagi jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizini mahalla jamg‘armasiga o‘tkazishdan yuzaga kelgan farqni qoplash uchun 1 691 000,0 ming (bir millard olti yuz to‘qson bir million) so‘m mablag‘ zarurligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston mahallalar uyushmasi Ishtixon tuman bo‘limi tasarrufidagi mahallalarning “Mahalla jamg‘armasi”ga jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizini o‘tkazishdan yuzaga kelgan farqni qoplash uchun Samarqand viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi bilan kelishilgan holda, Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-017-7-95-K/24-son qarori 1-ilovasidagi 8-bandi hamda 2-ilovasidagi 9-bandlari tuman mahalliy byudjeti hisobidan Ishtixon tumani mahalliy byudjetining 2025 yil IV chorak daromadlari

va xarajatlari 1 691 000,0 ming (bir millard olti yuz to‘qson bir million) so‘m miqdorida 1-ilovaga muvofiq oshirilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi 128-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 29-noyabrdagi KQ-5-V-son qaroriga asosan Ishtixon tumani mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish bo‘yicha Ishtixon tuman hokimligining taklifi loyihasi jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish uchun 110866-son bilan 10 kun muddatga “E-Kengash” elektron tizimiga joylashtirilib, jamoatchilik muhokamasiga loyiha regulation.gov.uz saytida e’lon qilinganligi, muhokama yakunlari bilan jamoatchilik tomonidan “Ishtixon tumanining 2025 yil IV chorak mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarini balansliligini buzmagan holda ko‘paytirish bo‘yicha ilovadagi ma’lumotlar taklif etilgan fayldagi malumotlar bilan almashtirilish” taklifi kelib tushganligi inobatga olinsin.

4. Ishtixon tumani Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (S.Ibragimov) Ishtixon tumani mahalliy byudjetining 2025-yil IV chorak daromadlar va xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining Mahalliy byudjetni, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Abdug‘aniyev) hamda Ishtixon tumani hokimining birinchi o‘rinbosari (Q.Nuriddinov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi **NAXALOV ZAYNIDDIN GUZARBOYEVICH**

Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining
2025-yil 12-dekabrdagi
VII-16-168-7-95-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Ishtixon tuman mahalliy byudjetining 2025-yil IV chorak daromadlari va xarajatlarining balansligini buzmagan holda ko‘paytirish to‘g‘risida MA’LUMOT

a) Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-017-7-96-K/24-son qarori 1-ilovasidagi 8-bandi Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

Soliq turi	Tasdiqlangan parametr	Parametrga kiritiladigan o‘zgarish so‘mmasi	Jami
Qishloq xo‘jaligiga oid yerlar uchun jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i	32 545 000	1 691 000	34 236 000

b) Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-017-7-96-K/24-son qarori 2-ilovasidagi 9-bandi Mahalla jamg‘armasi mablag‘lari pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

Soliq turi	Tasdiqlangan parametr	Parametrga kiritiladigan o‘zgarish so‘mmasi	Jami
Mahalla budjeti jamg‘armasi	**3 006 000**	**1 691 000**	**4 697 000**